

FORTEPIANO IJROCHILIGIDA TEXNIK MASHQLARNI SAMARALI BAJARISH METODLARI VA IJOBIY NATIJDORLIGI.

Xolmatov Sherzod Xushbekovich.

Termiz Davlat Universiteti

Milliy libos va san'at fakulteti, musiqa ta'limi kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada fortepiano cholg'usida mashqlarni bajarish texnikasi va o'ziga xos o'quvchilarni hisobga olish printsipi rivojlantiruvchi ta'lim usuliyatiga chambarchas bogliqligi. Ta'limning muvaffaqiyati materialning tushunarli bo'lishiga, qo'ldan keladigan vazifalarni qo'yishga va ularni hal qilishning o'xshash usullaridan foydalanishga, shuningdek, o'qituvchi o'quvchinning faqat mavjud, imkoniyatni emas, balki "kelajakdagi kamoloti doirasini" ham hisobga olish bilan bog'liqligi haqida fikrlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: fortepiano, cholg'u, texnika, pedagogika, instruktiv material, faollik printsipi, badiiy-ijrochilik.

Texnik formulalarni o'zlashtirish bo'yicha maxsus ishlash zarurligi haqidagi fikr shakshubhasizdir. Forteplano maktabida har xil mashqlarni ana shunday formulalar bilan hisoblanadi. Mashqlarning ahamiyati shuki, ular musiqachiga pianinochilikdagi barcha qiyinchiliklarini «yadro»sini egallash imkonini beradi.

Lekin fortepiano pedagogikasida mashqlarga yondashishning o'zi o'zgaradi, bu hol ayniqsa ta'limning dastlabki davrini tahlil qilishda ko'rinadi. Quruq va maqsadsiz «chalish» o'rnini ohangdor, ifodali mashqlar egallamoqda, bunday mashqlarning har birida o'quvchilar oldiga sof texnik vazifalardan tashqari muayyan badiiy maqsad ham qo'yiladi. Mashqlarni o'zlashtirish markazida musiqiy-eshitish tasavvurlarini rivojlantirish ana shu tasavvurlarni harakat tasavvurlari bilan o'zaro bog'lash, bunday bog'lanish orqali pianinochilik usullari va malakalarini asta-sekin takomillashtirish turadi.

Ta'limning boshlanishida mashqlarni o'rganish yagona maqsad emas, balki badiiy material ustida ishlashga qo'shimcha zarur tadbir hisoblanadi. Ularga o'quvchilar pyesalarda duch keladigan qiyinchiliklar ham kiradi. Mashqlar o'quvchilarga o'z diqqatini nota matnidan erkin harakatlarga jaranglash sifatini kuzatishga ko'chirish imkonini beradi.

Muayyan instruktiv materialni tanlash mazkur davrda o'quvchi hal qilishi lozim bo'lgan vazifalarga bog'liqdir. Eng kichik yoshli o'quvchilar anchagina mashqlarni o'rganadilar. Bu mashqlar avvalo klaviatura ustidagi «qadamlar», qo'lini ketingi intervallarga, akkordlarga ko'chirishdan iborat bo'lib, barmoqlar va qo'llarning harakatlarini muvofiqlashtirishga yordam beradi. Mana shu bosqichda birinchi barmoqni qo'yish, barmoqlarni bitta klavish ustida tovushsiz almashtirish mashqlari juda zarurdir. Shuningdek, qo'llar pozitsiyasi chegarasida va melizmlarda legato mashqlaridan ham foydalanish lozim. Forteplano cholg'u ijrochiligida ilmiylikning asosiy vazifalari.

Ta'limning ilmiyligi muntazamlilik va izchillik bilan bog'liqdir. Ta'limda o'quv materialining bir bo'limi boshqa bo'limlar bilan vorisligi, muvoffiqligi, o'rganiladigan qoidalar asta-sekin murakkablashib borishi, ta'limning yangi bosqichidagi ilgari o'rganilgan qoidalardan foydalanish juda muhimdir.

Hozirgi sharoitda onglilik va faollik printsipi yetakchi yo'nalishga ega, chunki bu printsipi o'quvchilarning mustaqil bilish faoliyati shakllanish bilan bog'liqdir. So'nggi yillarda maktab ta'limida muammoli va dasturlashtirilgan ta'lim usullari kengtarqaldiki, bular o'qitishni faollashtirish uchun ham, har biro' quvchiga tabaqali yondashishni damalga oshirish uchun ham qulay sharoit yaratmosda. Ta'limda bilishvazifalarini hal qilish muammolaridan foydalanish o'quvchilarda ularni tushunish hamda o'zlashtirishga ongli yondashishni tarkib toptiradi.

Musiqqa bilan shug'ullanish jarayonida onglilik va faollikni tarbiyalash o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Chunki ijro jarayoniga ongli munosabatda bo'linsagina ta'limning dastlabki bosqichida musiqqa savodxonlingi elementlarini, tovush chiqarish yo'llarini o'rganish, ta'limning keyingi bosqichlarida musiqqa asarining rivojlanish mantiqini, uning uslub va janr xususiyatlarini tushunish, ishning usullari va yo'llarini o'zlashtirish mumkin.

Ko'rsatmalilik printsipi o'qituvchining o'z fikrlarini muayyan misollar ortali ifodalay olinishi va is-botlay xizmatida namoen buyladnki, bu ish materialini puxta o'zlashtirishga, tushunarli va oson materialni yaxshiroq eslab qolishga yordam beradi. O'qituvchi mashg'ulotlarda musiqqa asarlarini (butun yoki qisman) ko'rsatishdan, shuningdek, og'zaki tushuntirishdan (obrazli ifodalash, taqqoslash, rang-tasvir, adabiy asarlar bilan bog'lash imkoniyatlaridan) keng foydalanadi.

Badiiy-ijrochilik faoliyatida o'quvchilarni estetika va aqliy kamol toptirish imkoniyati vujudga keladi. Badiiy idrok va ijro eng oddiy shakllarni solishtirish hamda taqqoslashdan toki chuqur tahlil qilish va umumlashtirishgacha bo'lgan fikrlash operatsiyalari bilan tarkibiy bog'lanadi.

Musiqqa asboblari orasida nihoyatda qulay, eng universal va imkoniyati boy musiqqa asbobi fortepianodir. "Shuni yaxshi tushunib olish kerakki, —deb yozgan edi G.G. Neygauz, - musiqani va musiqqa savodini o'rganish umummadaniy ish bo'lib, bunda fortepiano eng yaxshi, tengiyo'q vositadir. Tilni, jamiyat haqidagi fanni, matematika, tarix, tabiatshunoslik va hokazolarni o'rganish singari musiqani o'rganish ham madaniy kishi uchun majburiydir. Menga qolsa, o'rta maktabda fortepiano orqali majburiy musiqqa ta'limini joriyqilar edim[1]".

Musiqqa asbobini chalish, bu ishni, hatto, bolalar bajarishi ham doimo ijodiy faoliyatdir. U ijrochidan faqat muayyan ko'nikma va malakalarni emas, balki faollikni, maqsadga intilishni, diqqat-e'tiborilikni va ijodiy tashabbuskorlikni ham talab qiladi. Musiqqa ijrochiligibolalardabarkamollikkaerishish, go'zallikni anglashshtiyoqinia hosil qiladi. Musiqqa asarlaridagi badiiy obrazlar esa ularda estetik xissiyotni shakllantiradi, ularga barcha insoniy kechinmalarni yaxshiroq tushunishda yordam beradi.

O'quvchilar turli musiqqa asarlar ustida ishlashda muayyan dunyoqarashda aks etgan hayotda yashash imkoniyatiga ega bo'ladilar, shu kechinmalar bilan birga ma'lum-estetik fikrlar ham vujudga keladi. B.M. Teplovning fikricha, badiiy tarbiyada yana shunishi ham muhimki, bir san'atdagi "ishlar" san'atning boshqa turlarida badiiy qobiliatlarning shakllanishiiga katta yordam berishi mumkin. O'quvchilarda badiiy bilimlar qancha ko'p bo'lsa, ular har hali san'at asarlaridagi obrazlarni shuncha to'la va chuqur tushunishlari hamda anglashlari mumkin. San'at bilan bevosita amaliy shugullanishning o'zidayoq juda katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Ijro etilayotgan obrazlarga va ular orqali voqelikdagihodisalarga, hissiyot va kechinmalarga estetik munosabat o'quvchilarni estetik tarbiyalashning eng bevosita va faol yo'lidir.

Fortepiano bo'yicha yakkatartibdagi mashg'ulotlarni tashkil qilish va o'tkazish printsipi umumiy ta'lim maktabi uchun musiqqa dasturi talablarini hisobga olinishi kerak. Ya'ni yakka tartibdagi mashg'ulotlar musiqqa darslarini qandaydir to'ldirishi va davom ettirishi, ular bilan o'zaro chambarchas bog'lanishi ham bitta usuliy yo'nalishga ega bo'lishi lozim. Maktablar ilmiy tadqiqot instituti musiqqa ta'limi laboratoriyasining hodimlari jamoasi akademik D. Kabalevskiy

rahbarligida ishlab chiqqan dastur hozirgi paytda Rossiyadagi umumiyta'lim maktablarining boshlang'ich sinflari uchun musiqa dasturi hisoblanadi.

Mazkur dastur hal qiladigan asosiy vazifalar musiqa mashg'ulotlariga qiziqish va oshirish qobiliyatini oshiradi. Shu bilan birga o'quvchilar dastlabki darslardan oqib faqat musiqani idrok etishni emas, balki musiqa haqida fikr yuritishni, ham o'rganadilar. Darsning mavzulilik va yaxlitlik prinsipi eng muhim ahamiyatga ega, nazariy ma'lumotlarni bayon qilish va eslab qolish esa musiqani hissiyot bilan tu-shunish asosida amalga oshiriladi.

Bulardan tashqari, dasturning bir necha joyidamaktabdagi musiqa mashg'ulotlarining hamma shakllari o'quvchilarni ijodiy kamol toptirishi, ya'ni ularda mustaqil fikrlashga, o'zining tashabbusini ko'rsatishga intilishni vujudga keltirishi zarurligi qayd qilinadi[5]. Mazkur sifatlarni tarkib toptirish yakka tartibdagi mashg'ulotlarni olib boradigan o'qituvchining diqqat markazida turishi lozim.

Oliy o'quv yurtidagi ta'lim va tarbiya zamon talablariga javob beradigan va amaliy faoliyatni boshlashdan oqib uning muvaffaqiyatini ta'minlaydigan sifatlarga ega bo'lgan mutaxassislarni yetishtirish lozim. Hozirgi kunda oliy o'quv yurtlaridagi ta'lim jarayoni o'z vazifasiga va jadalligiga ko'ra ancha murakkablashdi. Shuning uchun uning yo'nalishi, mazmuni va usuliyati masalalarini ilmiy asosda hal qilmay turib, jamiyatning doimiy ortib borayotgan talablariga mos mutaxassislar tayyorlash samaradorligini ta'minlash mumkin emas.

Mutaxassislar tayyorlashning maqsadlari, vazifalari va hususiyatlari o'rganish talabalarini o'qitish hamda tarbiyalashning eng muhim shartidir. Mana shu ishning hozirgi mavjud shakllaridan biri oliy o'quv yurtini bitirganyosh mutaxassis shaxsining hususiyatlarini gavdalandirishdir. Bo'lajak mutaxassisning mukammal qiyofasida, jamiyatning mana shunday, mutaxassislarga ehtiyoji yaqqol ko'rinadi, binobarin mazkur qiyofaning o'zi oliy o'quv yurtidagi ta'lim-tarbiya jarayonini, talabalarining kasb-korlik tayyorgarligi sistemasini tashkil qilish va rivojlantirish dasturi bo'lishi kerak. Har bir kasb o'ziga xos muhim sifatlarga ega bo'lishni talab qiladi. Mana shu sifatlarni belgilash-talabalar shaxsini shakllantirishning muayyan maqsadlarini belgilash, demakdir.

Musiqa o'qituvchisining murakkab kasbi qandaydir bir necha musiqa ixtisosliklarini o'z ichiga oladi, lekin shunchaki ularning yig'indisidan iborat bo'lmaydi. Shuning uchun musiqa - pedagogika fakultetida o'qituvchilar tayyorlash o'quv rejasi va amaliyotiga mazkur ixtisosliklarni jamlashning o'zi yetarli emas. Bunda musiqa-pedagogika fakulteti talabalarining kasb-korlik tayyorgarligi jarayonini ilmiy asosda tashkil etish qonuniyatlarini tadqiq qilish, mutaxassislar tayyorlash sistemasining ilmiy asoslangan omillarini ishlab chiqish zarur.

Pedagogik nazariyalarni, tajribalarni anglamay turib, zamonaviy o'qituvchi tayyorlashning mavjud amaliyotining tahlil qilmay va umumlashtirmay turib maz - kur o'qituvchi qiyofasini tuzish mumkin emas. Ana shu qiyofa mutaxassisga qo'yiladigan talablarning muayyan tizimi sifatida namoyon bo'lib, bo'lajak musiqa o'qituvchisi shaxsini shakllantirishning dasturi va yo'llarini takomillashtirish imkonini biradi.

Biz bu ishimizda yetakchi pedagogika oliy o'quv yurtlari musiqa-pedagogika fakultetlari o'qituvchilarining ilg'or ish tajribalariga tayanamiz.

Umumiy ta'lim maktabidagi musiqa o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchilarni g'oyaviy-hissiy va axloqiy tarbiyalash, ularda musiqa madaniyatini tarkib toptirish orqali umumiy madaniyatning yuksalishiga ta'sir ko'rsatishdan va shaxsini ma'naviy shakllantirishdan iboratdir. Shuning uchun ham ta'lim sistemasi musiqa tarbiyasini yosh avlodni uyg'un kamol toptirishning muhim omillari sifatida o'z ichiga olgan. Xususan musiqa bilan shug'ullanish badiiy bilish faoliyati bo'lib:

- g'oyaviy e'tiqodni shakllantirish, axloqiy tarbiyalaydi, shaxsdagi qiziqishlarning psixologik maqsadi va yo'nalishini belgilaydi, ijtimoiy kayfiyatni vujudga keltiradi, tashkil etadi va

birlashtiradi, ijtimoiy faollikni tarbiyalaydi, san'atni idrok etish, his qilish va tushunish qobiliyatlarini rivojlantiradi, estetik va musiqiy didni o'stiradi, aqliy kamolotni, ijodiy faollikni, tafakkurni, o'quvchilarning o'ziga xosligini kuchaytiradi, fikr doirasini kengaytiradi, zarur musiqiy bilim, ko'nikma va mala - kalarni hosil qiladi, bo'sh vaqt muammosini hal qilishda yordam beradi.

Shuning uchun maktabdagi "Musika" fani o'quvchilarni faqat axloqiy-estetik Jihatdan emas, balki har tomonlama tarbiyalash va kamol toptirishning yo'li, deyish mumkin. Bolalar musiqani tushunishi uchun musika tilining ma'naviy va shakl yasash xususiyatlarini bilishi, muayyan darajada rivojlangan musiqiy (baland tovushli, tembrli, garmonik, dinamik musiqani tinglash, lad va ritmni his qilish, musiqani eslab qolish) qobiliyatlariga, musiqani idrok va ijro etish malakalariga ega bo'lishlari zarur.

Musika o'qituvchisining faoliyati faqat musika darslarini o'tsh bilan cheklanmaydi, uning vazifasiga musika to'garaklari, musika lektoriylari va klub - larini tashkil etish, musika kechalari hamda tanlovlarini tayyorlash va o'tkazish, maktab havaskorliginazorat qilish, filarmoniyaga madaniy yurishlar uyushtirish, musika teatri ishiniyo'lga qo'yish kabi tadbirlar ham kiradi. Kattalarga: ota-onalar, o'qituvchilar va yetakchilarga musika bilimlari berish ham shular jumlasidandir.

Musika o'qituvchisiga zarur mahoratni muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun pedagoglik, artistlik va musiqachilik qobiliyatlari ham zarur.

Musika o'qituvchisi o'z fanini (musiqani) sevishi, unga ishtiyoq bilan yondashishi, kishilarni yaxshi ko'rish, musika san'ati vositalari bilan o'qitish va tarbiyalashga qiziqishi lozim.

Shunga ko'ra L.N.Tolstoy faqat o'z ishini sevgan o'qituvchiyaxshi o'qituvchi bo'lishini, o'zining ishini ham, o'quvchilarni ham sevadigan o'qituvchi-barkamol o'qituvchi ekanini uqtirgan edi[4].

Shunday qilib, musika o'qituvchisi bilimlarining tuzilmasini ijtimoiy-siyosiy psixologik-pedagogik va maxsus bilimlar tashkil qiladi.

Ijtimoiy-siyosiy bilimlar o'qituvchi dunyoqarashining nuqtai nazarining poydevori, undagi kasb-korlik va maxsus bilimlarning metodologik bazasidir.

Psixologik-pedagogik bilimlar o'qituvchining kasb-korlik tayyorgarligi uchun asos sifatida xizmat qiladi. Musika o'qituvchisi musiqiy qobiliyatlar psixologiyasini, bola va o'smir shaxsining tipologik xamda yosh xususiyatlarini, ijodiy o'ziga xoslikning rivojlanishi qonuniyatlarini va ana shu rivojlanish eng samarali amalga oshadigan sharoitlarni bilishi zarur. Maxsus bilimlar umumiy musika pedagogikasining tarixi va nazariyasini ham, fortepiano ijrochilikni o'rgatish usuliyatini ham o'z ichiga oladi Maxsus sinf o'qituvchisi avvalo o'zining o'quvchilarga umumiy estetik tarbiya berish vazifalarini tushunib olinishi lozim. Bu vazifalar musika asboblarni chalishni yaxshi o'rgatishdangina iborat bo'lib qolmasligi kerak. Bunda eng muhimi bolaga sevishi o'rgatish va unda musika mashg'ulotlariga qiziqish uyg'otish, cholg'u asboblari yordamida musiqiy faoliyatga ehtiyoj hosil qilish, shuningdek, maktabni bitirgandan keyin ham loaqal o'z dilxushligi uchun muzika bilan shug'ullanishimkonini beradigan bilim, ko'nikma va malakalarni tarkib toptirishdir [7].

Fortepiano darslari juda katta tarbiyaviy imkoniyatga ega. Shuning uchun ularning tarbiyaviy va ta'limiy vazifalarini uzviy birlikda, bir-birini to'ldirgan holdatushunishi zarur. Bunda V.A. Suxomlinskiyning "Ommaviy musika tarbiyasi mutaxassis musiqachini emas, balki avvalo insonni tarbiyalashdir", -degan so'zlarini eslash kerak[2].

Mavjud didaktika printsiplariga movoffiq har bir darsga ta'lim va tarbiya tizimining zvenolaridan biri sifatida qarash lozim. Bunda tarbiyaviy ish ta'lim jarayonini to'ldiradigan qandaydir ikkinchi darajali omil hisoblanmasligi kerak. Binobarin bu ish ta'lim bilan dialektik birlikni tashkil qiladi. G'. Neygauz pedagog musiqachining o'quvchiga tarbiyaviy ta'sir

ko'rsatishdagi vazifalarini ifodalab shunday yozgan edi: "O'qituvchini aqlli, sezgir, halol, adolatli qilishni amalga oshirsa bo'ladigan, to'la amalga oshirib bo'lmasa ham, davrimiz qonunlaridan, san'atning o'zidan kelibchiqqan, har doim dialektik jihatdan o'zini oqlagan vazifasidir[3]".

O'quvchilar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlar me'daga tegib ketmasligi, lekin o'quvchi sezmaydigan yo'lda doimiy ravishda amalga oshirilishi kerak. Pedagog o'quvchining nimalarga qiziqishi, nimalarni o'qishi va yaxshi ko'rishini, uyidagi sharoiti, oilasidagi munosabatlari va hokazolarini bilishi lozim. Mana shularni bilib olish maqsadida o'tkaziladigan suhbatlar beixtiyor boshlanishi va qiziqarli hamda ishonarli tarzda borishi, ana shu suhbatlar, natijasida o'quvchi aytilayotgan narsalarga o'qituvchi haqiqatan qiziqayotganini, suhbatlarni faqat o'zining majburiyati sifatida o'tkazmayotganini tushunib yetishi lozim. O'quvchilar bilan (yakka tartibda yoki jamoa xolida) o'tkaziladigan savol-javobar va qisqa suhbatlar paytida har xil mavzular, masalan: dunyoqaraahni va axloqiy-estetik fazilatlarni, estetik did, mushohada va baholashni, musiqa muhabbatini va musiqa mashg'ulotlariga qiziqishni, mehnat ko'nikmalari va xarakterning ayrim hislatlarini tarbiyalash bo'yicha fikr almashish mumkin [6].

Bir qancha olimlar umumiy pedagogik qobiliyatlar orasida tashkilotchilik, odamoxunlik, pedagogik tasavvur, kuzatuvchanlik, talabchanlik, pedagogiknazokat, diqqatni taxsimplash va hokazolar muhim ahamiyatga molikligini ta'kidlaydilar. Ammo bunda, bolalarga muhabbat, o'z kasbiga qiziqish va shu kasb bilan shug'ullanishga moyillik allohida rol o'ynaydi. Har qanday ixtisoslikdagi pedagog uchun maxsus qobiliyatlar ham zarurki, ularsiz tegishli pedagogik faoliyatni amalga oshirib bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Нейгауз Г.Г. Об искусстве фортепианной игры: Записки педагога. 5-е изд. -М.: Музыка, 1988.— 29 с.
2. Савшинский, С.И. Средства выразительности музыканта-исполнителя (Фрагменты из незаконченной книги) // С.И. Савшинский музыкант, педагог, ученый. Сборник статей, материалов, воспоминаний / Сост. О. П. Сайгушкина. СПб. : б. и., 2007. С. 32-66.
3. Г.Нейгауз.Об искусстве фортепианной игры.М. 1958. С. 37.
4. Алексеев, А.Д. История фортепианного искусства / А.Д. Алексеев // Ч. 1, 2. – М.: 1988. С.25.
5. Апраксина, О.А. О возможностях и содержании исследовательской работы учителя-музыканта в общеобразовательной школе / О.А. Апраксина // Музыкальное воспитание в школе. Вып 12. – М.: Музыка, 1977 С.24.
6. Choriyev, B. B. (2019). Ideological bases for the modernization of Uzbek folk instruments. ISJ Theoretical & Applied Science, 12 (80), 83-87.
7. URL: <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=42657401>
8. DOI: 10.15863/TAS.2019.12.80.17
9. Choriyev, B. (2021). BOLALAR MUSIQA VA SAN'AT MAKTABLARI HAMDA UMUMIY O'RTA TA'LIM MUAASSASALARI INTEGRATSIYASINI TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI.
10. Choriyev, B. (2021). CONTENT AND LEVEL OF COMPETENCE OF MUSIC CULTURE LESSONS IN SECONDARY SCHOOLS.
11. Choriyev, B. (2021). UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA MUSIQA MADANIYATI DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI KAMCHILIKLAR VA MUAMMOLAR.